

Chorlash



13:00 / 28.11.2021 3010

Qizlarining barvaqt qaytganini ko'rib otasi ajablanib, ulardan sababini so'radi.

- Ikkoviga: «Ey qizlarim! Nima narsa sizlarni shoshiltirdi. Bugun ertaroq kelibsizlarmi?» dedi.

- Allohning O'zi bizga bir solih kishini yetkazdi. U qo'ylarimizni sug'orib berdi.

Qizlarining javobini eshitgan chol taajjubga tushdi va bildiki, qo'ylarni sug'orib bergan kishi bu yerlik emas. Chunki shu kungacha hali hech kim qizlarga yordam bermagandi.

- U yigitni qaerda qoldirdinglar?

- O'sha joyda. U boshpanasiz bir musofir odam ekan.

- Qizlarim, sizlar yaxshi ish qilmabsizlar. Bir bechora musofir bizlarga yordam beribdi. Uning bu yerlarda hech kimi yo'q ekan. Bu kech u qaerda boshpana olib, tunaydi? Biz uni mehmon qilmog'imiz lozim. Sizlardan biringiz borib uni chaqirib olib keling.

«Bas, ulardan biri hayo bilan yurib kelib: «Otam seni bizlarga (qo'ylarimizni) sug'orib berganing haqini berish uchun chaqirmoqda», dedi».

Duosini Alloh ijobat qilganini, unga boshpana berganini Muso tushundi-da, indamay qizning oldiga tushdi.

Qizga ko'zi tushib qolmasligi uchun oldinda ketayotgan Muso ulug'vor qadam tashlardi.

Ular cholning huzuriga kelganlarida, chol Musoning ismi, vatani va nimalar qilib yurgani haqida surishtirdi. Muso boshidan o'tganlarini birma-bir hikoya qilib berdi.

Musoni jim turib sabr va sukunat bilan oxirigacha tinglab, Muso hikoya qilishdan to'xtagach qariya dedi:

- **«Qo'rqmagin. Sen zolim qavmdan najot topding».**

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad